DEVON TUZISH AN'ANALARI VA YANGILANISHLARI

Bozorova Dilnur Ravub qizi,
O'zbekiston Milliy Universiteti magistranti
Email: bozorovadilnur@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19724938

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'zbek mumtoz adabiyoti hamda zamonaviy she'riyatida devon tuzish an'analari, ularning shakllanishi, qat'iy me'yorlari va tarixiy taraqqiyot jarayonida yuzaga kelgan yangilanishlar ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqot doirasida devonchilikning asosiy tamoyillari – debocha yozish an'anasi, janrlar tartibi (xususan, qasida va g'azalning joylashuvi), asarlarni alifbo tartibida berish hamda devonni fard janri bilan yakunlash kabi mezonlar Alisher Navoiy va Ahmad Tabibiy ijodi misolida qiyosiy o'rganiladi.*

Kalit so'zlar: *devon, debocha, alifbo tartibi, janrlar tizimi, g'azal, qasida, fard, Alisher Navoiy, Ahmad Tabibiy, devonchilik an'analari.*

Аннотация. *В данной статье научно анализируются традиции составления диванов в узбекской классической литературе и современной поэзии, их формирование, строгие нормы, а также изменения, возникшие в процессе исторического развития. В рамках исследования основные принципы диваностроения – традиция написания дебочи, порядок жанров (в частности, расположение касыды и газели), размещение произведений в алфавитном порядке, а также завершение дивана жанром фард – рассматриваются в сравнительном аспекте на примере творчества Алишера Навои и Ахмада Табибия.*

Ключевые слова: *диван, дебоча, алфавитный порядок, система жанров, газель, касыда, фард, Алишер Навои, Ахмад Табибий, традиции диваностроения.*

Abstract. *This article provides a scientific analysis of the traditions of composing divans in Uzbek classical literature and modern poetry, their formation, strict norms, and the innovations that have emerged during the process of historical development. Within the framework of the study, the main principles of divan composition–such as the tradition of writing prefaces, genre order (specifically, the arrangement of qasidas and ghazals), the alphabetical order of works, and the completion of the divan with the fard genre–are studied comparatively using the works of Alisher Navoi and Ahmad Tabibi as examples.*

Keywords: *divan, preface, alphabetical order, genre system, ghazal, qasida, fard, Alisher Navoi, Ahmad Tabibi, divan traditions.*

Kirish. Bugungi kunda milliy qadriyatlarimiz va adabiy merosimizni o'rganishga qaratilayotgan yuksak e'tibor madaniyatimiz tarihidagi boy an'analarni chuqur tahlil qilish va ularni kelajak avlodga mukammal tarzda yetkazish imkonini bermoqda. Zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligida o'rganilishi dolzarb bo'lgan masalalardan biri – bu mumtoz adabiyotimizning o'ziga xos qomusiy shakli hisoblangan devon tuzish tartibi va uning tarkibiy tamoyillaridir. Devon – muayyan bir shoirning she'riy asarlari ma'lum qoida va an'anaviy shartlar asosida tartib berilgan to'plami bo'lib, u nafaqat ijodkor mahoratini, balki davrning adabiy-estetik qarashlarini ham aks ettiradi.

O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti devonchilikning eng yuksak va mukammal namunasi bo‘lib, u keyingi davr ijodkorlari, xususan, Ogahiy va Ahmad Tabibiy kabi shoirlar uchun o‘ziga xos maktab vazifasini o‘tadi. Devon tuzishning an’anaviy mezonlari, ya’ni maxsus debocha bilan boshlanishi, asarlarning qofiya harflari asosida alifbo tartibida joylashtirilishi hamda janrlar rang-barangligini saqlagan holda fard yoki muammo janri bilan yakunlanishi devonning kompozitsion yaxlitligini ta’minlovchi asosiy shartlardir. Mazkur maqolada mumtoz devonchilik an’analari Alisher Navoiy hamda Ahmad Tabibiyning “Munisu-l-ushshoq” devoni misolida qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida devon tuzishdagi beshta muhim shartning saqlanishi hamda shoirlar tomonidan kiritilgan o‘ziga xos yangilanishlar, jumladan, devonning qasida o‘rniga g‘azal bilan boshlanishi yoki yakuniy qismlardagi janriy o‘zgarishlar ilmiy jihatdan yoritib beriladi.

Adabiyotlar tahlili. Sharq mumtoz adabiyotshunosligida devon tuzish shunchaki she’rlar to‘plami emas, balki asrlar davomida shakllangan qat’iy me’yorlar tizimidir. "O‘zbek tilining izohli lug‘ati"da devon tushunchasiga muayyan shoirning dostonlardan tashqari barcha she’riy merosini alifbo tartibida jamlovchi to‘liq to‘plam deya ta’rif berilgan.

O‘zbek devonchilik maktabining nazariy va amaliy asoslari Alisher Navoiy ijodida o‘zining eng yuksak cho‘qqisiga ko‘tarilgan. Xususan, adabiyotshunos H. Sulaymon tomonidan o‘rganilgan "Ilk devon" hamda bevosita muallif tomonidan tartib berilgan "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti bu borada asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotlarda devon tuzishning beshta muhim sharti: debocha mavjudligi, asarlarning qofiya harfi bo‘yicha alifbo tartibida joylashishi, janrlar rang-barangligi (Navoiyda 16 xil janr), qasida bilan boshlanish va fard bilan yakunlanish an’analari alohida qayd etiladi. Keyingi davr adabiy muhitida, xususan, Ahmad Tabibiyning "Munisu-l-ushshoq" devonida Navoiy an’analariga sodiqlik bilan birga, o‘ziga xos ijodiy yangilanishlar (devonni g‘azal bilan boshlab, qasida bilan yakunlash kabi) kuzatiladi. Bu esa devonchilik an’analarining barqaror va shu bilan birga transformatsiyaga moyil ekanligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada qiyosiy-tarixiy, strukturaviy tahlil va tavsifiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti hamda Ahmad Tabibiyning “Munisu-l-ushshoq” devoni o‘zbek mumtoz devonchilik qonuniyatlari asosida o‘zaro qiyoslanib, an’anaviy me’yorlarning saqlanishi va ulardagi evolyutsion yangilanishlar deterministik yondashuv asosida aniqlandi.

Tahlillar va natijalar. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida o‘rganilishi zarur bo‘lgan masalalar ko‘p. Mana shunday masalalarda biri bu devon tuzish tartibidir. Mumtoz adabiyotda, mumtoz adabiyot nazariyasiga doir ilmiy adabiyotlarda devon atamasi uchraydi. Hammamizga ayonki, devon bu u yoki bu shoirning she’rlar to‘plamidir. Devon atamasiga O‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha ta’rif berilgan: “DEVON I [f. دیوان – she’rlar to‘plami] Muayyan bir shoirning radif va qofiyalarga rioya etgan holda alifbo tartibi bilan tartib etilgan she’rlarining (dostonlardan tashqari) to‘liq to‘plami” [1.256]. Lekin biz har qanday she’rlar to‘plamiga devon deya olmaymiz. Sharq adabiyotida devon tuzishning o‘ziga xos an’anaviy shartlari bor. Bunday shartlar asosida tuzilgan she’riy to‘plamnigina devon deyish mumkin. Mumtoz adabiyotda bunday an’anaga javob bermaydigan she’riy to‘plamlarni bayoz yokida kulliyot deb yuritganlar.

O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida eng mukammal devonlar sirasiga Hofiz Xorazmiy, Ahmad Tabibiy, Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” hamda Ogahiyning “Ta’viz ul-oshiqin” devonlari kiradi. Yuqoridagi devonlar asosida devon tuzishning an’anaviy shartlarini ko‘rishimiz va bugungi zamonaviy o‘zbek she’riyatida devon tuzish an’analari qay darajada davom etayotganini aniqlashimiz mumkin. Devonchilik san’atida Ahmad Tabibiyning o‘rni beqiyosdir. Ahmad Tabibiy turkiy tilda 3 ta devon tuzgan. Bular: “Munisu-ushshoq”, “Hayratu-l-ushshoq” hamda “Tuhfatu-s-suloton”. Shoirning “Munisu-ushshoq” devoni 1909-yilda kotib Bobojon Tarroh ibn Abdulaziz maxsum tomonidan ko‘chirilgan. Ushbu manba shoir qalamiga mansub maxsus debocha “Debochayi Tabibiy” bilan boshlanadi. Ya’ni “Debochayi Tabibiy” deb sarlavha qo‘yilib, so‘ng “Bismillohir-Rahmonir-Rahim” yozilib, kattagina debocha keltiriladi. Mumtoz adabiyotda Debocha mazmuni turli bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, unda uchta an’anaviy bobning mavjudligi shart sanalgan. Birinchi bob "Hamd" deb nomlanadi. Tabibiy debochasini ham aynan shu ruhda boshlagan. Ushbu debocha nasriy usulda yozilgan bo‘lib, “Hamdi bag‘oyat va sanoyi benihoyat ul mutakallimi kalomi ofarin va qoyili kitobi Furqoni mubiyn dargohig‘a loyiq va sazovor va borgohig‘a tuhfa…” [2. Ikkinchi bob “Na’t” hisoblanadi. Debochadagi Na’t qismi ilk nazmiy qism bo‘lin, u quyidagi she’r bilan boshlanadi:

“Rasulikim edi guftori afsah,
Oning har lazzati ming jondin amloh.”

Uchinchi bob “Madhiya” deb atalib, bu yerda Tabibiy to‘rt Halifa, shahzoda Hasan, Husan va Feruz madhini keltiradi. Debochaning yakunida “… Allohumma urzuqna min ne‘matihil ‘uzmo va ja‘alni min davlatil kubro. Omin, yo Robbal ‘olamin” iborasi bilan nihoyasiga yetadi [Tabibiy 1968, 11]. Shundan so‘ng asar “Navidi turkiy Tabibiy devoni” (musammo bamunisu-l-‘ushshoq) nomi ostida tilga

olinadi va basmala bilan boshlanuvchi, hamd mazmunini ifodalovchi g‘azallar keltiriladi.Devonchilik an’analariga ko‘ra, devon tuzish jarayonidagi ikkinchi muhim mezonlardan biri – majmuaga, eng avvalo, qasida janrida yaratilgan she’rlarni kiritish hisoblanadi. Mumtoz adabiy an’anada qasida shoirning badiiy salohiyati, ijtimoiy-estetik qarashlari hamda homiy yoki muayyan shaxsga munosabatini ifodalovchi yetakchi janr sifatida e’tirof etilgan. Shu bois ko‘plab mumtoz devonlar aynan qasida bilan boshlanishi an’anaviy hol sanaladi. Biroq Tabibiy ushbu umumiy qoidalardan chekinib, o‘z devonini qasida bilan emas, balki g‘azal janridagi asarlar bilan boshlaydi. Tabibiy devonining g‘azal bilan boshlanishi mumtoz devon tuzish qoidalariga nisbatan yangicha yondashuv sifatida talqin etilishi mumkin. Devon tuzish jarayonidagi uchinchi muhim mezon sifatida qasida va g‘azallarning muayyan tartib asosida, ya’ni arab alifbosi ketma-ketligida joylashtirilishi e’tirof etiladi. Mumtoz devonchilik an’analarida ushbu tartib she’rlarning matn boshidagi harflariga ko‘ra emas, balki ularning qofiya tizimida muhim o‘rin tutuvchi oxirgi harfiga asoslanib belgilanadi. Ya’ni g‘azal yoki qasidaning radifdan oldingi oxirgi harfi devondagi o‘rnini aniqlovchi asosiy mezon vazifasini bajaradi. Mazkur qoida “Munisu-l-ushshoq” devonini tartibga solishda ham izchil qo‘llanilgan. Devon tarkibidagi g‘azallar aynan qofiya harflari asosida alifbo tartibida joylashtirilib, “alif” (ا) harfi bilan tugaydigan g‘azallardan boshlanib, “ya” (ى) harfi bilan yakunlanuvchi asarlargacha izchil davom etadi. Bu hol Tabibiy devonining nafaqat mazmuniy, balki tashkiliy jihatdan ham mumtoz devonchilik an’analariga sodiq holda tuzilganini ko‘rsatadi hamda shoirning adabiy merosini tizimli va mukammal shaklda taqdim etishga intilganini tasdiqlaydi. G‘azal janriga mansub asarlar devonning asosiy qismini tashkil etganidan so‘ng, unda mumtoz she’riyatning boshqa janrlarida yaratilgan she’rlar ham muayyan ichki tartib va izchillik asosida joylashtiriladi. Mumtoz devonchilik an’analariga ko‘ra, devonning badiiy va tarkibiy jihatdan mukammalligi unda turli janrlarning tasodifiy emas, balki o‘zaro uyg‘un, mantiqan asoslangan ketma-ketlikda jamlanishi bilan belgilanadi. Bunday tizim shoir ijodining janrlar doirasidagi rang-barangligini, shuningdek, uning poetik mahoratini to‘laqonli namoyon etishga xizmat qiladi. Mazkur devon ham ana shu an’anaviy tamoyillarga muvofiq tarzda tuzilgan bo‘lib, uning tarkibi janrlar xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Xususan, devonda 504 ta g‘azal asosiy o‘rinni egallaydi. Shuningdek, 3 ta mustazod, 3 ta murabba’, 53 ta muxammas, 7 ta musaddas, 1 ta musabba’, 1 ta musamman, 1 ta mutassa’, 1 ta mu‘ashshar, 1 ta tarjeband, masnaviy shaklida yozilgan 5 ta soqiynoma, 145 ta ruboiy, 2 ta qasida, 6 ta mulamma’ g‘azal hamda 2 ta varsaqi mavjud. Umuman olganda, devon jami 735 she’rdan iborat bo‘lib, bu hol Tabibiy ijodining janrlar miqyosidagi keng qamrovini va devonning mumtoz adabiy

talablarga javob beradigan darajada puxta tuzilganini yaqqol namoyon etadi. Devon tuzish an'analarida belgilangan beshinchi muhim mezon devonning fard janriga mansub she'rlar bilan yakunlanishini taqozo etadi. Mumtoz adabiy qarashlarga ko'ra, fardlar ixcham shakli va hikmatli mazmuni bilan devonga yakuniy xulosa, ma'naviy umumlashtirish vazifasini bajaradi. Shu bois ko'plab mumtoz devonlarda fard janri oxirgi o'rinda joylashtirilgan. Agar shoir ijodida fard namunalarining mavjud bo'lmasligi kuzatilsa, an'anaga muvofiq ravishda devon muammo janridagi asarlar bilan nihoyasiga yetkazilishi ham mumkin bo'lgan. Biroq mazkur devonda ushbu an'anaviy qoidaga to'liq amal qilinmagan. Ya'ni devon fard yoki muammo janri bilan emas, balki qasida janriga mansub she'rlar bilan yakunlangan. Shu jihatdan, devonning qasida bilan yakunlanishi an'anaviy devonchilik me'yorlaridan chekinish sifatida emas, balki shoirning janrlararo nisbat va kompozitsion yaxlitlik haqidagi o'ziga xos qarashlarining ifodasi sifatida baholanishi mumkin.

Alisher Navoiyning dastlabki she'riy to'plami – ya'ni uning "Ilk devoni" – bevosita shoirning o'zi tomonidan tuzilmaganligi adabiyotshunoslikda alohida ta'kidlanadi.Manbalarda qayd etilishicha, Navoiy o'n olti–o'n yetti yoshlaridayoq Hirot adabiy muhitining yetuk vakili sifatida tanila boshlagan, shu yoshidayoq u o'z davrining mashhur shoirlaridan biri sifatida shuhrat qozongan edi. Uning she'rlari saroy hamda ilmiy-adabiy davralarda iftixor bilan tilga olinib, el orasida keng tarqalgan, ayrim g'azallari bastakorlar tomonidan kuyga solinib, hofizlar tomonidan zavq bilan ijro etilar edi. Bu jarayon Navoiy iste'dodining dastlabki shakllanish bosqichidayoq yuksak e'tirofga sazovor bo'lganini ko'rsatadi. Shunday bo'lishiga qaramay, shoir devon tuzishga shoshilmagan. Natijada uning muxlislari, adabiy do'stlari va ijod ahli she'rlarini tartibga keltirish va bir joyga to'plashgan. Shunda mashhur xattot Sulton Ali Mashhadiy boshchiligida Navoiy devoni tuzildi. Keyinchalik adabiyotshunos Hamid Sulaymon mazkur devonga "Ilk devon" nomini bergan. Bu devon Navoiy ijodining dastlabki bosqichini aks ettiruvchi muhim manbalardan biri sanaladi. Navoiyning keyingi devonlari – "Badoye' ul-bidoya" va "Navodir un-nihoya" – esa bevosita hukmdor va ma'rifatparvar homiy Sulton Husayn Boyqaro tashabbusi hamda da'vati bilan yaratilgan. Biroq ushbu devonlar mukammal she'riy majmua sifatida shakllanmagan bo'lib, ular shoirning barcha asarlarini o'z ichiga qamrab olmagan. Zamon o'tishi bilan Navoiyning turli janrlarda bitgan, oldingi to'plamlarga kirmagan ko'plab she'rlari jamlanib boraverdi va XV asrning 90-yillariga kelib yangi devon tuzish zarurati tug'ildi. Natijada 1491–1498-yillar oralig'ida dunyoga kelgan "Xazoyin ul-maoniy" ("Ma'nolar xazinasi") turkiy adabiyotning eng yirik she'riy majmualaridan biriga aylandi. Ushbu devon Navoiy shu vaqtga qadar turkiy tilda bitgan barcha she'riy merosini o'z ichiga jamlagan

bo‘lib, o‘z hajmi, mavzular rang-barangligi, g‘oyaviy teranligi va badiiy yetukligi bilan Sharq mumtoz adabiyotining durdonasi sanaladi. Devonning muhim qismi “Debocha” an’anaga ko‘ra muqaddima sifatida yozilgan bo‘lib, bu qism devon tuzishning birinchi sharti hisoblanadi. Mumtoz adabiyotda Debocha mazmuni turli bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, unda uchta an’anaviy bobning mavjudligi shart sanalgan. Birinchi bob "Hamd" deb nomlanib, unda Alloh taologa hamdu sano aytiladi. Navoiy debochasini ham aynan shu ruhda boshlagan: “Shukr va sipoh ul Qodirgakim, chun odam osoyishgohidin vujud oroyishi ogohlariga jilva berdi. Insonni soyir maxluqotdin nutq sharafi bilan mumtoz qildi.” Ikkinchi bob “Na’t” bo‘lib, unda Payg‘ambarimiz Muhammad Mustafo sallallohu alayhi vasallam madh etiladi. Uchinchi bob “Madhiya” deb atalib, bu yerda Navoiy o‘z davrining ma’rifatparvar hukmdori Sulton Husayn Boyqaroni madh etgan. “Debocha” qismiga, shuningdek, shoirning hayoti, ma’rifiy qarashlari, ijodiy yo‘li, badiiy merosi va devon tuzish sabablarini asoslovchi muhim tarixiy va adabiy ma’lumotlar ham kiritilgan. Shu boisdan “Xazoyin ul-maoniy” nafaqat shoir she’riyati, balki o‘sha davr madaniy-madaniyat hayotini o‘rganishda ham asosiy manbalardan biri sifatida e’tirof etiladi. Shoir o‘z asarlarini sanar ekan “Debocha” qismni mustaqil asar darajasiga ko‘targan holda “Xutbai devonin” nomi bilan zikr etadi. Bu holat uning devonchilikka bo‘lgan yondashuvi nafaqat an’anaviy, balki ijodiy-estetik jihatdan ham mukammal va puxta o‘ylanganligini ko‘rsatadi. Mumtoz adabiyotda devon tuzish xususida qat’iy adabiy me’yorlar bo‘lib, bu qoidalar asrlar davomida shakllanib, o‘ziga xos tartibni yuzaga keltirgan. Ana shu an’analarning ikkinchi muhim sharti – devonga avvalo qasida janrida yozilgan she’rlarni kiritishdir. Sharq she’riyati tarixidan ma’lumki, bu tartibga ko‘plab shoirlar amal qilgan. Masalan, Sakkokiy ijodi buning yorqin misolidir: uning devoni 10 ta qasida bilan boshlanadi, undan keyingina g‘azallar berilgan. Bu uslub qasidaning saroy she’riyati janri sifatidagi mavqeini va undagi madh, siyosiy-ma’rifiy g‘oyalar ahamiyatini ta’kidlaydi. Ammo Alisher Navoiy devonchilikning mazkur an’anasiga ma’lum ma’noda rioya qilgan bo‘lsa-da, o‘ziga xos yangilanish ruhi bilan yondashgan. U devonlarining barchasini qasida bilan emas, balki she’riyatning eng yetuk va xalqona janri bo‘lgan g‘azallar bilan boshlaydi. Shu tariqa shoir mavjud qoidalarga muvofiq holda ham, o‘z ijodiy printsiplarini ilgari surgan holda ham yangi estetik yo‘l ochgan. Devon tuzishning uchinchi sharti – qasida yoki g‘azallarning alifbo tartibida joylashtirilishidir. Bu jarayonda eng muhim jihat shundaki, harf tartibi she’rning bosh harfi bo‘yicha emas, balki uning oxirgi harfiga ko‘ra belgilanadi. Ushbu uslub she’r qafiyasining fonetik tuzilishini belgilab, devonda izchillik, musiqiy uyg‘unlik va kompozitsion yaxlitlik yaratadi. Navoiy devonlaridan bo‘lgan “G‘aroyib us-sigor” ana shunday tartibda tuzilgan bo‘lib, quyidagi matla’ bilan boshlanadi:

“Ashraqot min aksi shamsil qasi anvorul xudo,
Yor aksin mayda ko‘r deb jomdin chiqdi sado” [3.186].

Mazkur g‘azal (ا) harfi bilan tugagani bois devon aynan shu harf bilan yakun topuvchi g‘azallar bilan boshlanadi va alifbo tartibi asosida davom etib, (ى) harfi bilan tugaydigan she’rlar bilan yakunlanadi. Demak, devon tuzishning to‘rtinchi sharti – shoirning arab alifbosidagi barcha harflarda tugaydigan g‘azallarga egaligidir. Bu talab shoir ijodiy mahoratining kengligini, qafiya imkoniyatlarini mukammal egallaganini ko‘rsatadi. G‘azallardan keyin devonda mumtoz she’riyatning boshqa janrlariga mansub asarlar ham ma’lum tartibda joylashtiriladi. Devonning mukammalligi unda turli janrlarning o‘zaro uyg‘un va izchil tarzda jamlanishi bilan belgilanadi. Aynan shu jihatdan Alisher Navoiy yaratgan “Xazoyin ul-maoniy” o‘z miqyosi, janr boyligi va badiiy-estetik yuksakligi bilan Sharq she’riyatining eng mukammal devoni sifatida baholanadi. Ushbu devon tarkibida lirikaning 16 xil janri uchraydi. Ularning tartibi va miqdori quyidagicha: G‘azal – 2600 ta, Mustazod – 4 ta, Muxammas – 10 ta, Musaddas – 5 ta, Musamman – 1 ta, Tarji’band – 4 ta, Tarkibband – 1 ta, Masnaviy – 1 ta, Qasida – 1 ta, Soqiynoma – 1 ta, Qit’a – 52 ta, Chiston – 210 ta, Ruboiy – 10 ta, Tuyuq – 133 ta, Muammo – 13 ta, Fard – 86 ta. Har bir janrdagi she’rlar o‘ziga xos qoidalar asosida qofiya yoki radifning so‘nggi harfi bo‘yicha tartibga solingan. Bu metod Navoiyning nafaqat adabiy maktab yaratganini, balki devonchilik ilm-fanini mukammal darajada rivojlantirganini isbotlaydi. Devon tuzishning beshinchi sharti – devonning fard janridagi she’rlar bilan tugashi. “Xazoyin ul-maoniy” ham an’anaga muvofiq aynan shu janr bilan yakunlanadi. Agar shoirda fardlar bo‘lmagan taqdirda, devon muammo janri bilan nihoyasiga yetishi mumkin edi.

Xulosa. Alisher Navoiy devonchilikka jiddiy yangilik olib kirgan, janr tizimini boyitgan hamda uni mukammal shaklga keltirgan mutafakkir sifatida qadrlanadi. Unga qadar yaratilgan devonlarda janrlar soni bu darajada bo‘lmagan. Navoiyning mazkur an’anasini keyingi avlod shoirlari samarali davom ettirgan, xususan Ogahiy “Ta’viz ul-oshiqin” devoniga 19 janrni jamlagan holda Navoiy boshlab bergan maktabni yanada yuksaltirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildlik. Toshkent, 2022. 834 b.
2. Ahmad Tabibiy. Tanlangan asarlar. Toshkent, 2025.
3. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. I jild: G‘aroyib us-sig‘ar. – Toshkent: Fan, 1983.